

AYRIM DINIY SO'Z VA IBORALARNING YAPON TILIDAGI TARJIMA VA IZOHI

Madumarova Dilnora Baxodir qizi

O'zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti,
yapon tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15678078>

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz dinda uchrashi mumkin bo'lgan ayrim so'z va iboralarning o'zbek tilidagi sharxi, hamda ularni yapon tiliga tarjima qilishda qo'llash mumkin bo'lgan eng maqbul tarjimalari ko'rib chiqiladi. Yapon tilida 外来語(gairaigo) –o'zlashma so'zlar asosan katakana shaklida yozilganligi sababli, diniy so'zlar ham katakanada yozilgani ma'qul. Biroq, yapon tili egali uchhun bu so'zlar tushunarsiz bo'lishi mumkinligini hisobga olgan holda ularni yapon tilidagi kanjida yozilish shakllarini ham ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: ahli sunna, mazhab, aqiyda, sunnat, mujtahid, mutaassiblik, bid'at, xurofot.

Аннотация. В этой статье мы рассмотрим толкование некоторых слов и фраз, которые мы можем встретить в религии на узбекском языке, а также наиболее подходящие переводы, которые можно использовать при переводе их на японский язык.

Поскольку иностранные слова (гайрайго) в основном пишутся катаканой на японском языке, предпочтительнее писать религиозные слова катаканой. Однако, учитывая, что эти слова могут быть непонятны носителю японского языка, мы также рассмотрим их японские формы написания кандзи.

Ключевые слова: Ахлю-сунна, мазхаб, вероучение, сунна, муджтахид, слепая приверженность, бидъаб, суеверие.

Abstract. This article will consider the interpretation of some words and phrases that we may encounter in religion in Uzbek, as well as the most appropriate translations that can be used when translating them into Japanese. Since 外来語(gairaigo)-language words in Japanese are mainly written in katakana, it is preferable to write religious words in katakana. However, considering that these words may be incomprehensible to a native Japanese speaker, we will also consider the forms of writing them in Japanese kanji.

Keywords: Ahl al-sunnah, madhhab, islamic theology, sunnah, mujtahid, bigotry, bid'ah, superstition.

Diniy-ma'rifiy adabiyotlarni o'qir ekanmiz, albatta o'z tilimizda bo'lishi qaramay unda ishlatiladigan ayrim so'z, ibora va jumlalarning leksik ma'nolarini to'liq tushunmaslik holatlari uchrab turadi. Bunga sabab, albatta bizning so'z boyligimiz kamligi, diniy-ma'rifiy kitoblarni kam o'qiganligimiz hamda diniy ahkomlarni to'liq bilmaganligimiz va o'qimaganligimizdandir.

Ushbu maqolada islom dini haqida gapirliganda uchraydigan ayrim so'z va iborlarni o'zbek va yapon tilida leksik va lug'aviy ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

Ushbu ishni Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining "Iyomon" nomli kitoblarining ilk sahifasida keltirilgan "Shiorimiz" matnini tahlil qilish bilan ko'rib chiqamiz.

Shiorimiz:

Ahli sunna val jamoa mazhabi asosida pok aqiyda va musaffo Islomga intilish, Qur'on va sunnatni o'rganib amal qilish, islomiy ma'rifikat taratish, salafi solih – ulug' mujtahidlarga

ergashish, bag'rikenglik ruhini tarqatish, diniy savodsizlikni tugatish, ixtilof va firqachilikka barham berish, mutaassiblik va bid'at-xurofotlarni yo'qotish.

Avval yuqoridagi matnda keltirilgan so'zlarni o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nolarini ko'rib chiqib, so'ng yapon tilidagi tahliliga o'tamiz.

"Ahli sunna val jamoa" arabcha ibora bo'lib, "Sunnatga amal qiluvchi va jamoatga ergashuvchi kishilar", degan ma'noni anglatadi. Sunna va jamoa ahli kim deyilsa, ilmda peshvo sahabalar va ularning yo'lini tutgan zotlar, deyiladi.¹ Shu o'rinda sunnat amalga izoh berib ketadigan bo'lsak, "sunnat" –Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning qilgan amallaridir.

Mazhab arabcha so'z bo'lib, yo'nalish, oqim, yo'l, ta'limot kabi ma'nolarini anglatadi.

"Aqida" so'zi lug'atda aqd ya'ni tugish, bog'lash, mahkamlash ma'nollarini anglatadi.

Shar'iy atamasi esa, biror narsaga shak-shubhaga o'rinn qolmaydigan darajada qat'iy ishonishga aytildi. Demak, aqida qalbda sodir bo'ladigan jarayon bo'lib, u inson qalbidan ishongan, o'zi uchun e'tiqod, din qilib olgan narsalarga aytildi.²

Islom so'zi "salima", "yaslamu", "salaaman" va "salaamatan" kabi so'zlarning o'zagidan olingan bo'lib, o'zbek tilidagi lug'aviy ma'nosi "taslim bo'lish, itoat etish yoki tobe bo'lish"dir.

Islom so'zining lug'aviy ma'nosi quyadigi ma'nolarini anglatadi:

1. Ixlos
2. Turli ofatlardan salomat bo'lish.
3. Sulh va omonlik.
4. Itoat va bo'y sunish.³

"Salaf" so'zi arab tilida "avval o'tganlar, o'tmishda yashaganlar", "Salafiy" – "O'tmishda o'tgan ajdodlar yo'lidan boruvchi" ma'nolarini beradi. Istilohda esa "Salaf" Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom taraflaridan maqtalgan, ilk hijriy uch asr avlodlari hisoblaanadi. Shu davrda yashab o'tgan sahabalar, tobe'inlar va taba'tobe'inlardan iborat olimlaru fozillar, mujtahid ulamolari "salafi solihlar" deb ataladi.⁴

Mujtahid arabcha intiluvchi, g'ayrat qiluvchi, tirishqoq degan ma'noni bildiradi. Shar'iy istilohda esa, mujtahid deb Qur'on, sunnat va boshqa shariat manbalari asosida hukm chiqara oladigan kishiga aytildi.⁵

Lug'at kitoblarida "mutaassiblik" qattiqko'llik, bir fikrdda qattiq turib olish ma'nolariga dalolat qilishi aytib o'tilgan. Istilohda esa, doim o'zini so'zsiz haq deb bilib, fikrida qattiq turib olish, boshqalarni esa nohaq deb qarash taassubdir. Qisqacha aytganda, mutaassiblik, garchi dalil ko'rinish turgan bo'lsa ham, bir tomonga moyillik tufayli haqni rad etishdir.⁶

"Bid'at" so'zi lug'atda "o'xshashi bo'lмаган yangi narsani paydo qilish, diniy aqidalarga kiritilgan o'rinsiz isloh", – degan ma'noni bildiradi. Istilohda esa Alloma Izziddin ibn Abdussalom shunday ta'riflaganlar: "Bid'at – Rosululloh sallallohu alayhi vasallamning davrlarida bo'lмаган narsani amalga oshirishdir".⁷

¹ <https://muslim.uz>, O'zbekiston musulmonlar idorasi, "Ahli sunna val jamo kimlar?" maqola, 27.12.2022

² <https://muslim.uz>, O'zbekiston musulmonlar idorasi, "Aqidada adashmaylik" maqola, 23.01.2018

³ <https://islom.uz>, "Islom" nima?" maqola, 11.09.2023

⁴ <https://muslim.uz>, O'zbekiston musulmonlar idorasi, "Salafiyalar" kimlar?", maqola, 25.05.2023

⁵ "Mujtahid nima?", maqola, Bobobek Abduraximov "Koraboy oksakol" jome masjidi imom-xatibi, 04.02.2023

⁶ <https://muslim.uz>, O'zbekiston musulmonlar idorasi, "Mutaassiblikning mohiyati va ofatlari", maqola, 18.09.2022

⁷ <https://muslim.uz>, O'zbekiston musulmonlar idorasi, "Bid'at tushunchasi", maqola, 21.05.2022

Xurofot –diniy e’tiqod, urf-odatlar, irimlarni soxtalashtiruvchi ijtimoiy- pssixologik hodisa.⁸

Yuqorida izohi keltirilgan so’zlarni yapon tiliga bir so’z bilan tarjima qilish albatta mushkul. Uni yapon tilida tushinish uchun albatta izoh talab qilinadi. Biroq, matn ichida ushbu so’zlardan foydalanganimizda iloji boricha bir so’zdan iborat eng maqbul so’zdan foydalanimiz kerak bo’ladi. Yapon tilidagi diniy matnlarda arabcha diniy atamalar asosan asl talaffuzi bilan ya’ni katakana yozuvida yoziladi. Quyida yapon tilida ishlatishimiz mumkin bo’lgan eng maqbul so’zlarni ko’rib chiqamiz.

Ahli sunna val jamoa – 「スンナ派とジャマーハ」 (sunna ha to jamia). Bu yerda “ahli sunna” katakana va kanji bilan yozilmoqda. 「スンナ派」 (sunna ha) – 「スンナ」 (sunna) “sunniyar”, 「派」 (ha) – “oqim”, “yo’nalish”. Jamoa so’zi katakanada 「ジャマーハ」 yoki yaponlarga yana ham tushunarli bo’lish uchun 「共同体」 (kyoudoutai) -jamoa, hamjamiyat so’zi bilan ham berishimiz mumkin.

Sunnat - katakanada 「スンナ」 deb yozilib, 「預言者ムハンマド様の言行(yogensha Muhammadosama no genkou)」 – Payg’ambarimiz Muhammad alayhissalomning aytganlari va odatlari, qilgan ishlari deb izohlab ketsak bo’ladi.

Mazhab – katakana shaklda 「マズハブ」 shaklda yozilgani eng maqbولي bo’lib, izoh talab qilinganda 「宗派」 (shuhua) -bir din ichidagi oqim, yo’nalishlar so’zidan foydalansa bo’ladi.

Aqida – 「アキーダ」 (akida). Aqida so’zi aynan islomiy konteksta 「アキーダ」 (akida) shaklida ishlataladi va shunda diniy matnlarda tanish va aniqroq bo’ladi. Yapon tilida kengroq ifodalamoqchi bo’lganimizda esa 「信仰体系」 (shinkotaikei) –e’tiqod yo’li, 「信条」 (shinjo) –ishonadigan narsa, ishonch so’zlaridan foydalansak bo’ladi.

Islom – katakanada 「イスラム」、aniqroq din tushunchasini berish uchun 「イスラム教」 (isramu kyou), 「教」 –(kyou) “diniy ta’limot” shaklida bo’ladi.

Salafi solih - 「サラフ・サーリフ」 shaklida, ya’ni so’zning asliyatini berish uchun katakana shakli afzal. Bu so’zni yapon tilida izohlash uchun esa quyidagi iborani ishlatish mumkin: 「初期の敬虔なムスリム」 (shokino keikenna musurimu) –“Dastlabki dindor musulmonlar”.

Mujtahid – ムジュタヒド (mujutahido) shaklda, diniy matnlarda aynan shu shaklda ishlataladi. Yapon tilida izohlash uchun esa 「イスラム法における独自の解釈を行う学者」 (isuramu ho ni okeru dokuji no kaishaku o okonau gakusha), ya’ni islom huquqi bo’yicha mustaqil talqin qiladigan olim” jumlasini qo’llasak bo’ladi.

Mutaassiblik - 「過激主義」 (kagekishugi), ya’ni ekstrimizm, radikal oqim so’zi bilan tarjima qilishimiz mumkin.

Bid’at –katakanada ビダア(bidaa). Yoki kanji shaklida 「異端」 (itan) –mavjud din yoki jamiyatning qonun va an’analaridan farq qiladigan fikr va hatti-harakatlarni anglatadigan so’z. Qo’shimcha izoh uchun 「イスラム教にない宗教的な新しい行い」 (isuramukyou ni nai

⁸ <https://izoh.uz>, “O’zbek tilining izohli lug’ati”

shuukyoutekina atarashii okonai) jumlasini, ya’ni, islom dinida mavjud bo’lmagan yangi diniy odatlar desak bo’ladi.

Xurofot - 「迷信」(meishin) shaklida tarjima qilinib, “asossiz e’tiqod” ma’nosida qo’llamiladi. Bu so’z eng mos va keng tarqalgan so’z bo’lib, har qanday diniy yoki madaniy notog’ri e’tiqodlarga, irim, yolg’on e’tiqodlarga ishlatiladi.

Endi yuqoridagi matnni yapon tiliga to’liq tarjima qilib ko’ramiz.

スローガン：

スンナ派とジャマーハ学派に基づいて純粹なアキーダと清らかなイスラムを志向し、クルアーンとスンナを学び実践し、イスラムの知識を広め、サラフ・サーリフと言う正しい導きの偉大なムジュタヒド達に従い、寛容さと兄弟愛の精神を普及し、宗教的な無知をなくし、対立と分派主義を終わらせ、過激主義や異端・迷信を排除する。

Xulosa qiladigan bo’lsak, 外来語(gairaigo) –chetdan o’zlashgan so’zlar yapon tilida katakana shaklida yoziladi. Yuqorida keltirilgan so’z va iboralar ham islom diniga oid bo’lib, asosan arab tilidan o’zlashgan so’zlar bo’lganligi uchun bu so’zlarni ham katakana shaklida yozgan ma’qul. Biroq, yapon tilida ham ayrim diniy terminlardagi ayni o’sha ma’noni beradigan kanji ko’rinishidagi so’z va iboralar bo’lib, matn tarjimasida ana o’shalardan foydalansak yapon tili o’quvchilari uchun ham yanada tushunarli bo’ladi.

REFERENCES

1. Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf “Iymon”. –T.:”Hilol Nashr”, 2025.
2. <https://muslim.uz>, O’zbekiston musulmonlar idorasi, “Ahli sunna val jamo kimlar?” maqola, 27.12.2022
3. <https://muslim.uz>, O’zbekiston musulmonlar idorasi, “Aqidada adashmaylik” maqola, 23.01.2018
4. ¹ <https://islom.uz>, “Islom” nima?” maqola, 11.09.2023
5. <https://muslim.uz>, O’zbekiston musulmonlar idorasi, “”Salafiyalar” kimlar?”, maqola, 25.05.2023
6. “Mujtahid nima?”, maqola, Bobobek Abduraximov “Koraboy oksakol” jome masjidi imom-xatibi, 04.02.2023
7. <https://muslim.uz>, O’zbekiston musulmonlar idorasi, “Mutaassiblikning mohiyati va ofatlari”, maqola, 18.09.2022
8. <https://muslim.uz>, O’zbekiston musulmonlar idorasi, ”Bid’at tushunchaasi”, maqola, 21.05.2022
9. <https://izoh.uz>, “O’zbek tilining izohli lug’ati”